



FARG‘ONA VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

FARG‘ONA VILOYATINING
SANOAT ISHLAB CHIQRISHI
2024-YIL YANVAR-MAY OYLARI
(DASTLABKI MA'LUMOT)



Tel.: 73-241-96-28
www.farstat.uz



Farg'ona viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari

(2024-yil 1-iyun holatiga ko'ra)



Bugungi kunda viloyatda 6 701 ta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 768 tasi (faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar umumiy sonining 11,4 i %) Qo'qon shahriga, 732 tasi (10,5 %) Farg'ona shahriga, 597 tasi (8,9 %) Marg'ilon shahriga, 492 tasi (7,3 %) Uchko'prik tumaniga va 393 tasi (5,9 %) O'zbekiston tumaniga to'g'ri kelmoqda.

Shahar, tuman nomi	2024-yil 1-iyun holatiga korxonalar soni (birlik)		
	Faoliyat ko'rsatayotgan	Yangi tashkil etilgan	Jami faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarda shahar, tumanlar ulushi, % da
Jami:	6701	635	100,0
Farg'ona sh.	732	65	10,9
Qo'qon sh.	767	45	11,4
Quvasoy sh.	210	27	3,1
Marg'ilon sh.	598	46	8,9
<i>tumanlar:</i>			
Oltiariq	309	27	4,6
Qo'shtepa	259	52	3,9
Bag'dod	341	49	5,1
Buvayda	278	25	4,1
Beshariq	190	17	2,8
Quva	297	34	4,4
Uchko'prik	492	40	7,3
Rishton	351	42	5,2
So'x	195	14	2,9
Toshloq	289	29	4,3
O'zbekiston	393	38	5,9
Farg'ona	258	33	3,9
Dang'ara	371	22	5,5
Furqat	171	18	2,6
Yozyovon	200	12	3,0



Fargʻona viloyati sanoatining asosiy koʻrsatkichlari


Dastlabki maʼlumotlar boʻyicha 2024-yilning yanvar-may oylarida viloyat korxonalari tomonidan 14 806,1 mlrd. soʻmlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan boʻlib, 2023-yilning yanvar-may oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi 108,5% ni tashkil etdi.



Viloyatda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishining besh yillik koʻrsatkichlari oʻsish tartibida, sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi yildan yilga oʻsayotganligini koʻrsatadi.


Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish

Farg'ona viloyatida 2024-yilning yanvar-may oylarida aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilishi 3 637,4 ming so'mni tashkil etdi. Bu ko'rsatkich aholi ehtiyojlari ishlab chiqarish mahsulotlariga nisbatan o'sib borayotganini ko'rsatadi.



Ishlab chiqarilgan mahsulotlarning xaridorgirligi va aholi talablariga mosligini baholash uchun ham biz sanoat mahsulotlarining aholi jon boshiga to'g'ri kelish ko'rsatkichlarini hisoblab borishimiz kerak.

2024-yilning yanvar-may oylarida aholi jon boshiga to'g'ri kelgan sanoat mahsulotlari ko'rsatkichlari shuni bildiradiki, o'tgan yilning mos davriga nisbatan sanoat mahsulotlariga nisbatan aholining ehtiyoji o'sganligi hamda aholi sonining ham o'sib borayotganligini bildiradi.




**Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.*


Sanoat ishlab chiqarishining asosiy tarmoqlari

Sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, **13 759,6** mlrd.so'mni, jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi **92,9 %** ni, tashkil etdi.


Hajmi, mlrd. so'm



FHI, %da



Ulushi, %da



Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2024-yilning yanvar-may oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi **29,1 mlrd. soʻmni** yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining **0,2 %** ini tashkil etdi.



Yanvar-may

2022-y 24,4 mlrd. soʻm

2023-y 39,1 mlrd. soʻm

2024-y 29,1 mlrd. soʻm

FHI, %da

2022-y 39,3%

2023-y 140,9%

2024-y 67,8%

C seksiya

Ishlab chiqaradigan sanoat

2024-yilning yanvar-may oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi **13 759,6 mlrd. soʻmni** yoki jami sanoat mahsulotlarining **92,9 %** ini tashkil etdi.

Yanvar-may

2022-y. 9 879,8 mlrd. soʻm

2023-y. 10 830,1 mlrd. soʻm

2024-y 13 759,6 mlrd. soʻm

FHI, %da

2022-y. 105,8%

2023-y. 105,5%

2024-y 108,4%





Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan ayrim turdagi mahsulotlarning o'lish sur'ati
(O'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da)

Dizel yoqilg'isi		Avtomobil benzini		Klinker sement	
2024	83.8	2024	91.2	2024	76.0
2023	152.3	2023	162.9	2023	30.2
2022	85.7	2022	86.0	2022	59.1
O'simlik yog'i (tozalangan)		Portlandsement		Yumshoq bug'doy va spelta uni	
2024	30.5	2024	75.4	2024	104.1
2023	68.7	2023	92.2	2023	82.4
2022	60.9	2022	88.6	2022	89.3
Neft bitumi		Aroq ming litr (100% spirt)		Uzum vinosi	
2024	67.8	2024	56.3	2024	2.9 m
2023	2.9 m.	2023	138.4	2023	83.9
2022	48.4	2022	51.9	2022	63.8
Karbamid		Paxta chigiti		Paxta linti	
2024	90.4	2024	96.5	2024	119.7
2023	115.5	2023	128.3	2023	102.6
2022	87.3	2022	162.1	2022	170.9

2024-yilning yanvar-may oylari davomida ishlab chiqaradigan sanoatda 127,0 ming tonna avtomobil benzini (2023-yilning yanvar-may oylariga nisbatan 91,2%ni tashkil etgan), 154,8 ming tonna dizel yoqilg'isi (83,8 %ni), 60,8 ming tonna kalava ip mahsulotlari (111,7%ni) hamda 9 854,6 ming kv metr paxtadan tayyorlangan matolar (53,1%ni tashkil etgan) ishlab chiqarilgan.




Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish


Sanoat mahsulotlari	2023-yil yanvar-may	2024-yil yanvar-may	Farqi +/-
Avtomobil benzini, ming t	139,3	127,0	-12,3
Yumshoq bug'doy va spelta uni, ming t.	103 691,5	107 947,5	4 256,0
Paxta chigiti, ming t.	60,0	57,9	-2,1
O'simlik yog'i (tozalangan), ming t.	4,7	1,4	-2,8

Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida mashina va asbob- uskunalar ishlab chiqarish, ta'mirlash va o'rnatish, yarim tirkamalar va boshqa tayyor buyumlarni ishlab chiqarish sohasining ulushi – 10,0 % (2023-yilning yanvar-may oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 115,1%), to'qimachilik, kiyim, teri mahsulotlari ishlab chiqarishining ulushi – 40,0% (2023-yilning yanvar-may oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 106,6 %), oziq-ovqat, ichimlik mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 13,2% (2023-yilning yanvar-may oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 99,2%), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi – 13,9 % (2023-yilning yanvar-may oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 104,2 %)ni tashkil etdi.

O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,4 %ni (2023-yilning yanvar-may oylarida – 0,3 %), o'rta-yuqori texnologiyali – 14,3 % (14,9 %), o'rta-quyi texnologiyali – 24,2% (21,5%) va quyi texnologiyalisi – 54,0% (57,3%)ni tashkil etdi.



Metallurgiya sanoati




Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2024-yilning yanvar-may oylarida metallurgiya sanoati 92,2 mlrd. soʻmni yoki jami ishlab chiqariladigan sanoat hajmining 0,7%ni tashkil etib, fizik hajm indeksi esa 82,7 % ni tashkil etgan.

2023-yilning yanvar-may oylarida metallurgiya sanoati 92,5 mlrd.soʻmni yoki jami ishlab chiqariladigan sanoat hajmining 0,9%ni etdi oʻtgan yilga nisbatan fizik hajm indeksi esa 2,4 martaga koʻpaydi.



Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish




2024-yilning yanvar-may oylari yakunlariga koʻra, boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 11,8 % ni tashkil etdi, oʻtgan yilga nisbatan fizik hajm indeksi esa 1,4 % ga oʻsgan va ishlab chiqarish hajmi 1 617,1 mlrd. soʻmni tashkil etdi.

2023-yilning yanvar-may oylarida ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ulushi 11,7 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 110,4 % ni tashkil etgan.



Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish




2024-yilning yanvar-may oylari yakunlariga koʻra, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 12,7 % ni tashkil etdi, oʻtgan yilga nisbatan fizik hajm indeksi esa 1,7 % ga kamaydi va ishlab chiqarish hajmi 1754,0 mlrd. soʻmni tashkil etdi.

2023-yilning yanvar-may oylarida ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 16,1 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 98,2 % ni tashkil etgan.

Ichimliklar ishlab chiqarish sanoati

2024-yilning yanvar-may oylari yakunlariga ko'ra, ichimliklar ishlab chiqarishining oziq-ovqat mahsulotlaridagi ulushi 0,5 % ni tashkil etdi, o'tgan yilga nisbatan fizik hajm indeksi esa 20,5 % ga o'sdi va ishlab chiqarish hajmi 65,8 mlrd. so'mni tashkil etdi.


2023-yilning yanvar-may oylarida ichimliklar ishlab chiqarishining oziq-ovqat mahsulotlaridagi ulushi 2,0 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 95,2 % ga o'sgan.



To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati

2024-yilning yanvar-may oylarida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 31,0 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi 4,3 % ga ko'paygan bo'lsa, ishlab chiqarish hajmi 4 271,1 mlrd.so'mni tashkil etdi.


Shuningdek, 2023-yilning yanvar-may oylarida ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 32,7 % ni tashkil etgan bo'lsa, uning fizik hajm indeksi 83,6 % ni tashkil etgan.




Kiyim ishlab chiqarish

2024-yilning yanvar-may oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 6,8 %, fizik hajm indeksi 113,3 % ni, ishlab chiqarish hajmi esa 941,5 mlrd. so'mni tashkil etdi.

2023-yilning yanvar-may oylari yakunlariga ko'ra, kiyim ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 5,2 % ni, fizik hajm indeksi esa 119,8 % ni tashkil etgan.




Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish



2024-yilning yanvar-may oylari yakunlariga ko'ra, kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 9,1 % ni, fizik hajm indeksi 93,7 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 1256,7 mlrd.so'mni tashkil etdi.

Shuningdek, 2023-yilning yanvar-may oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 11,1 % ni fizik hajm indeksi esa 112,1 % ni tashkil etgan.


Koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish



2024-yilning yanvar-may oylari yakunlariga ko'ra, koks va neftni qayta ishlash mahsulotlarining ishlab chiqarish sanoatidagi ulushi 5,5 % ni, fizik hajm indeksi 132,9 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 752,3 mlrd.so'mni tashkil etdi.

Shuningdek, 2023-yilning yanvar-may oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 4,8 % ni fizik hajm indeksi esa 61,4 % ni tashkil etgan.

Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish



2024-yilning yanvar-may oylari yakunlariga ko'ra, rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 4,7 % ni, fizik hajm indeksi 150,3 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 653,0 mlrd.so'mni tashkil etdi.


Shuningdek, 2023-yilning yanvar-may oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 2,8 % ni fizik hajm indeksi esa 187,1 % ni tashkil etgan.

Elektr uskunalari ishlab chiqarish



2024-yilning yanvar-may oylari yakunlariga ko'ra, ishlab chiqaradigan sanoatda elektr uskunalari ishlab chiqarish sanoatining ulushi 1,3 % ni, fizik hajm indeksi 120,1 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 180,2 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Shuningdek, 2023-yilning yanvar-may oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,9 % ni fizik hajm indeksi esa 2,2 martaga ko'paygan.




Mashina va uskunalardan tashqari tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish



2024-yilning yanvar-may oylari yakunlariga ko'ra, mashina va uskunalardan tashqari tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 3,3 % ni, fizik hajm indeksi 103,1 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 452,6 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Shuningdek, 2023-yilning yanvar-may oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 2,8 % ni fizik hajm indeksi esa 155,6 % ni tashkil etgan.




Avtotransport vositalari, treylerlar va yarim tirkamalar ishlab chiqarish




2024-yilning yanvar-may oylari yakunlariga ko'ra, avtotransport vositalari, treyler va yarim tirkamalar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 3,9 %, fizik hajm indeksi 22,3% ga o'sdi hamda ishlab chiqarish hajmi 540,9 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Shuningdek, 2023-yilning yanvar-may oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 2,9 % ni fizik hajm indeksi esa 120,9 % ni tashkil etgan.



Elektr, gaz, bug‘ bilan ta‘minlash va havoni konditsiyalash korxonalarini tomonidan 2024-yil yanvar-may oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 888,3 mlrd.so‘mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 6,0 % ini) tashkil etadi.

2024-yilning yanvar-may oylarida, sanoatning mazkur tarmog‘ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug‘ bilan ta‘minlash tizimlari va havoni konditsiyalashning o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 303,5 mlrd. so‘mga ko‘payganligi kuzatildi.



Elektr, gaz, bug‘ bilan ta‘minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalarini tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2023- yil yanvar-may	2024- yil yanvar-may	Farqi +/-
Elektroenergiya, mln.kVt.s	133,6	130,0	-3,6
Issiqlik energiyasi, ming gkal	796,9	578,0	-218,9

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 129,1 mlrd.so'mni (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmining 0,9 %ini) tashkil etdi.



Sanoat mahsulotlari	2023- yil yanvar-may	2024- yil yanvar-may	Farqi +/-
Oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, mlrd.so'm	6,8	15,6	8,8
Axlat o'ralarni, tindirgichlarni va septiklarni bo'shatish, tozalash va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, mlrd.so'm	7,6	13,0	5,4


O'tgan yilning mos davriga nisbatan oqava suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar 8,8 mlrd. so'm yoki 2,3 martaga ko'payganligi kuzatildi. Shuningdek axlat o'ralarini tindirgichlarini va septiklarni bo'shatish, tozalash va ishlov berish bo'yicha xizmatlar 5,4 mlrd. so'm va 70,7 %ga ko'paygan.

Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilishi


Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan 4 129,4 mlrd. so‘mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo‘lib, umumiy ishlab chiqarishdagi ulushi hisobot davrida 27,9 %ni tashkil etdi.

Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish umumiy hajmdagi ulushi, % da

2023-yil yanvar-may



2024-yil yanvar-may




Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmi (mlrd.so‘m)da

2023-yil yanvar-may



2024-yil yanvar-may



Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishida kichik biznesning ulushi 2024-yilning yanvar-may oylarida (jami sanoat mahsulotlari hajmidagi ulushi, %da)

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 6 980,4 mlrd.so‘mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 47,1 %ni tashkil etdi. Yillar kesimida taqqoslaganda kichik biznes subyektlari tomonidan ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmi o‘sib borayotganligini kuzatish mumkin. Ushbu ko‘rsatkich viloyatda kichik biznes subyektlari tomonidan ishlab chiqarilayotgan sanoat mahsulotlariga aholining talabi o‘sib borayotganligini hamda eksport hajmi ko‘payotganligini bildiradi.

